# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

9
2023




08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 464 sahifa, 30-sentyabr, 2023-yil.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Karimov Norboy G‘aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘zbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
**Toshkulov Abduqodir Hamidovich,** i.f.d., prof., O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha maslahatchisi o‘rinbosari
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari
**Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avazimbetovich,** t.f.d., prof., TDIU rektori
**Oblamuradov Narzulla Naimovich,** i.f.n., dots., O‘zR Tabiat resurslari vaziri o‘rinbosari
**Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich,** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Tabiat resurslari qo‘mitasi raisi
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O‘zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Utayev Uktam Choriyevich,** O‘zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
**Ochilov Farxod,** O‘zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo‘limi boshlig‘i
**Eshov Mansur Po‘latovich,** i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo‘yicha prorektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., “O‘IRIAM” ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Maqsud Abdullayevich,** p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori
**Karimov Norboy G‘aniyevich,** i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori
**Hakimov Nazar Hakimovich,** f.f.d. TDIU profesor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU Marketing kafedrasi professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro “Nordik” universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., “El-yurt umidi” jamg‘armasi ijrochi direktori o‘rinbosari
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o‘qituvchisi
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o‘g‘li,** TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo‘yicha mutaxassis

**Ekspertlar kengashi:**
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Imomqulov To‘lqin Burxonovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti



Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**Jurnalning ilmiyligi:**

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA


Ichki turizmni rivojlanlantirishda davlatning o'rni ........ 7
**Dehqonov Burxon Rustamovich,** tayanch doktorant

Qishloq xo'jaligida sug'orish tizimlari boshqaruvini rivojlantirish yo'llari ........ 11
**Mirjamilova Hulkar Nurali qizi,** assistent

Yangi O'zbekiston sharoitida o'simliklar karantini tizimi faoliyatini takomillashtirish va iqtisodiy samaradorligini oshirish ........ 15
**Alimov Murodkosim Achilovich,** mustaqil izlanuvchi

"Yashil iqtisodiyot"da energetika sohasini investitsion holatining statistik tahlili ........ 20
**Umarov Faxriddin Umar o'g'li,** katta o'qituvchi

Yoqilg'i-energetika korxonalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion faoliyatning ahamiyati ........ 26
**Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

Tog'li hududlarda turizm biznesining rivojlanishi ........ 31
**Abduvakil Alimov Komil o'g'li,** tayanch doktorant

Ta'lim turizmining nazariy asoslari va O'zbekistondagi tendensiyalari ........ 38
**Maxmudova Nodira O'ktamovna,** tayanch doktorant

Turizmga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari ........ 43
**Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li,** tayanch doktorant

Mintaqaviy investitsion loyihalarning jozibadorligi tahlillari masalalari ........ 46
**Davlyatshayev Akmal Ashurmamatovich,** dotsent, i. f. n.

Yashil iqtisodiyotning tijorat banklaridagi ahamiyati va ularning raqamlashuvi ........ 51
**Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi,** dotsent, PhD

Turizmni rivojlantirishda "Tourism 4.0" konsepsiyasini joriy etish masalalari ........ 57
**Yuldasheva Dilnoza Ulug'bekovna,** mustaqil tadqiqotchi

Davlat tomonidan qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish ........ 62
**Ollokulova Feruza Mansurovna,** PhD; **Jabborov Jahongir Abduvohid o'g'li,** magistrant

Перспективные направления "Зелёной химии" для Республики Узбекистан ........ 66
**Султанходжаев Бахтиёр Забихуллаевич**

O'zbekistonda transport va logistika sohasini rivojlantirish strategiyasi ........ 73
**Usmonov Botir,** magistr

Hududlarda investitsion faollikni oshirishga qaratilgan mexanizmni takomillashtirish ........ 78
**Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi,** tayanch doktorant

Qurilish tarmoqlarida boshqaruv faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili ........ 82
**Mirsodiqov Abdulla Tursunaliyevich,** PhD

Connection between interest rate on loans, cash flow and turnover of funds ........ 87
**Sharbat Abdullaeva, Professor; Sardor Abdullaev,** the applicant

Econometric Analysis of the Impact of IPO on the Market Capitalization of Companies ........ 92
**Shakhzod Saydullaev,** PhD.

Davlat xaridlarini takomillashtirishda byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning mohiyati va zarurligi ........ 101
**Raximjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li,** mustaqil tadqiqotchi

O'zbekistonda to'lov tizimining raqamli transformatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari ........ 105
**Otamurodov Shavkat Nusratillayevich,** i. f. d. (DSc); **Eshqulova Nasiba Normo'minovna,** o'qituvchi

Tijorat banki xizmatlarida ta'lim kreditining o'rni va uni takomillashtirish masalalari ........ 110
**Eldor Uskanov,** mustaqil tadqiqotchi

Korxonaning strategik boshqaruvini takomillashtirish ........ 114
**Maxmudov Nosir Maxmudovich,** professor; **Elmurodov Faxriddin Farxodovich,** magistratura tinglovchisi

Respublikada kichik biznesni moliya-kredit mexanizmlari orqali qo‘llab-quvvatlash masalalari ........ 120
**Ergashev Otamurod Toshtemirovich,** PhD

Mulk iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda muammo va yechimlar ........ 125
**Ermatov Musojalil Komilovich,** kafedrasi dotsenti v. b.; **Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich,** katta o‘qituvchi

Using intelligent and decision support systems for developing University Curriculum: semi-automated need analysis approach ........ 132
**Abduraxmanov Zafar Batirovich; Ikromov Sayidolim Ismoilovich**

Challenges of Developing a Competitive Environment in the Context of Economic Liberalization ........ 138
**Akobirova Nodira Najmiddin qizi,** asisstent

Topical Issues of the Development of Recreational-Tourist and Military-Recreational Activities ........ 141
**Alimova Guzal Alisherovna,** PhD in economics, docent

Kreditlash jarayonlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etish istiqbollari ........ 146
**Jo‘rayeva Sevara Zakirovna,** mustaqil izlanuvchi (PhD)

Portfelli xorijiy investitsiyalarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ........ 152
**Kamilova Iroda Xusnitdinovna,** PhD

Exploring the Ethical Dimensions of Artificial Intelligence in Advancing Human Rights and Sustainability ........ 156
**Matkarimova Gulchekhra Abdusamatovna,** Professor

Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlashning nazariy asoslari ........ 163
**Maxmudov Rahimjon Xamid o‘g‘li,** mustaqil izlanuvchi

Barqaror iqtisodiy o‘sishga yalpi talab va yalpi taklif omillarining ta’siri ........ 170
**Nabiyev Ulug‘bek Mirodiljon o‘g‘li,** tayanch doktorant

The potential advantages of implementing the Total Quality Education Management (TQEM) concept ........ 175
**Otakulov Makhamadjon,** PhD

Kichik yashil biznesni yanada rivojlanitirish imkoniyatlari ........ 181
**Raximova Kizlarxon Ne’matjon qizi**

Jamg‘armalar investitsiyalar manbasi sifatida ........ 185
**Sadikova Ra’no Abdullayevna,** i. f. n., dots.

Davlat moliyasining moddiy asosini oshirish orqali iqtisodiy o‘sishga erishish ........ 188
**Shamsiyev Shuxrat Sayfutdin o‘g‘li,** mustaqil izlanuvchi

Aholi turmush darajasini oshirishda ijtimoiy himoyaning o‘rni ........ 191
**Sherjonov Sherjon Alijan o‘g‘li,** mustaqil izlanuvchi

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘lov qobiliyatini aniqlashning nazariy-uslubiy masalalari ........ 196
**Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o‘g‘li,** dekan o‘rinbosari

Kichik sanoat zonalari faoliyatini samarali boshqarish tamoyillari ........ 203
**Shodmonqulov Kamoliddin Murodillayevich,** dotsent; **Adilbekov Allayar Anvarbekovich,** magistrant

Aholini ijtimoiy himoya qilishda pensiya va ijtimoiy nafaqalarning o‘rni ........ 206
**Aliyev Ma’ruf Komiljon o‘g‘li,** mustaqil izlanuvchisi

Использование методов управления для повышения эффективности производства на предприятиях ........ 212
**Алиева Надирахон Абдумаликовна,** PhD. доц.; **Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи,** ст. 3-курса

Korxonalar moliyaviy barqarorligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish ........ 217
**Z. G. Allaberganov,** kafedra dotsenti

Davlat fiskal (byudjet-soliq) siyosatining aholi bandligiga ta’siri va uni takomillashtirish ........ 222
**Asatullayev Xurshid Sunatullayevich,** i. f. n., professor

O‘zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlariga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish omillari ........ 228
**Axmedova Yulduz Sunatullayevna,** kafedra o‘qituvchisi

Moliyaviy risklarni baholash usullari, boshqaruvdagi yondashuvlari ........ 232
**Baymuratova Gulirayxon Tursunbayevna,** kafedra dotsenti

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda biznes jarayonlarini boshqarish . 236
**Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich,** mustaqil izlanuvchi

Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning ekonometrik modellashtirish ko'rsatkichlari ........ 242
**Berdiyev Akram O'ktamovich,** mustaqil izlanuvchi

Innovatsion muhitni shakllanishi va rivojlanishida investitsiyaning zarurligi ........ 253
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**

Meva-sabzavotchilik klasterlarida yashil moliyalashtirishning nazariy asoslari va xususiyatlari ........ 258
**Botirov Erkinjon Xayitovich,** kafedra dotsenti

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali investitsion salohiyatni oshirish ........ 263
**G'aybullayev Odil Baxtiyarovich,** kafedra dotsenti v. b.

Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish ........ 269
**Jubanova Bayramgul Aymuratovna,** PhD

Soliq ma'muriyatchiligi va uni raqamlashtirishni ekspert baholash yo'llari ........ 272
**Ibragimov Boburshoh Bohodir o'g'li,** i. f. d. (PhD), doktorant (DSc)

Xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya autsorserlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni transformatsiya qilishni takomillashtirish ........ 278
**Islomov Alisher Baxtiyor o'g'li,** mustaqil izlanuvchi

O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari ........ 284
**Qurbonova Shaxrinoz,** tayanch doktorant

Yerlarning degradatsiyaga uchrashi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ........ 288
**Mamanazarova Nasiba Jo'rayevna,** kafedra doktoranti

Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish xususiyatlari ........ 292
**Mamirjon Jalollidinov,** mustaqil izlanuvchi

Финансирование акционерных общества через рынок капитала ........ 297
**Муминов Шохжахон Суюнович,** ассистент кафедра

Необходимость развития предпринимательской и страховой деятельности риски на рынке Узбекистана ........ 302
**Муятдинов Махмуд Жалелович,** независимый исследователь

Инвестиционная привлекательность как фактор экономического развития страны ........ 307
**Назарова Гузал Баходировна**

Tijorat banklarida kreditlash jarayonlarini takomillashtirish masalalari ........ 312
**Nozima Abdullayeva,** mustaqil tadqiqotchi

Tijorat banklarining xizmatlar sohasini kreditlash amaliyotiga ta'sir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili ........ 316
**Nurmuxammedov Abdijabbar Yunusovich,** kafedra dotsenti v. b.

Современное решение, которое положительно влияет на логистические услуги и резко снижает смертность на перекрестках ........ 326
**Тажимуратов Умид Рузматович, Бахриев Иброхим Исометдинович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Жуманиёзов Эркин Худойберганович,** кандидат медицинских наук, доцент; **Тажимуратов Рузмат Отажанович,** кандидат медицинских наук, **Тажимуратов Абдусами Умид угли,** ученик 10 класса

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida dividend siyosati va tendensiyalari tahlili ........ 333
**Temirov Abdulaziz Alimjanovich,** kafedra dotsenti, i. f. n.

Современное состояние инвестиционного потенциала Республики Узбекистан ........ 339
**Топилдиев Соҳибжон Раҳимжонович,** DSc; **Одилова Дилноза Барнаевна,** PhD

Portfelli xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli ........ 345
**Tosheva Ziroat Aliqul qizi**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kichik biznes subyektlarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy jihatlari ........ 349
**To'rayeva Nafisa Odilovna,** mustaqil izlanuvchi

О достижениях Узбекистана в реализации национальных целей и задач устойчивого развития ........ 355
**Турсун Мухитович Ахмедов,** и. ф. д., проф.; **Гавхар Рустамовна Хидирова,** докторант, и. ф. ф. д., доц.

Влияние корпоративного управления в зеленой экономике ........ 359
**Уринов Бобур Насиллоевич,** заведующий кафедрой

Ko'chmas mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari ........ 366
**Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich,** kafedra dotsenti

Transport tizimi iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari ........ 374
**Fayzullayev Javlonbek Sultonovich,** DSc.

Oliy ta'lim muassasalarida byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning ayrim fundamental masalalari ........ 382
**Xayriddinov Sh. B.,** mustaqil izlanuvchi

Xalqaro raqamli valyuta bozorini rivojlantirish istiqbollari ........ 385
**Xolov Nabijon Qaxramonovich,** PhD.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning rivojlanishi va hozirgi shart-sharoitlari ........ 391
**Xusanov Otabek Nishonovich,** PhD, mustaqil izlanuvchi

Banklarining aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari ........ 396
**Elbusinova Umida Xamidullayevna,** kafedra dotsenti

Особенности методики проведения аудита затрат на производство ........ 401
**Хилола Икрамова Ровшан кизи,** базовый докторант

Ta'lim islohotlarining ma'naviyatdagi o'rni ........ 407
**Bekdavlat Aliyev**

O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari ........ 412
**O'ktamova Nozima Narzulla qizi,** kafedra dotsenti

Moliyaviy barqarorligi tushunchasining konseptual mohiyati, turlari va asosiy tavsiflari ........ 416
**Eshquvatov Aziz Baxtiyorovich,** mustaqil izlanuvchi

XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy axloqiy konsepsiyalaridagi umumiylik va xususiylik ........ 420
**Abrorxon Asatulloyev Asatulloyevich,** falsafa fanlari doktori (PhD)

Yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va huquqiy asoslari ........ 424
**Abdurahmanova Muqaddas Toxtasinovna**

Стратегии привлечения иностранных инвестиций для содействия устойчивому экономическому росту в Республике Узбекистан с акцентом на инициативы зеленого развития ........ 431
**Нилуфар Зикируллаева Дилмуродовна,** аспирант

Bank tizimi barqarorligini oshirishda kredit risklarining ahamiyati va ularni kamaytirish yo'llari ........ 440
**Xolmamatov Farhodjon Kubayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Baholash faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari va uning huquqiy asoslari ........ 446
**Bobirjon Aktamov,** mustaqil tadqiqotchi

Suv resurslaridan foydalanishni iqtisodiy boshqarish samaradorligini kompleks baholash uslubiyoti ........ 454
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** t. f. n., mustaqil tadqiqotchi

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini boshqarishni takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish ........ 459
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**



# KREDITLASH JARAYONLARIDA XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI OMILINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI

**Jo‘rayeva Sevara Zakirovna**
Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi(PhD), “Trastbank” XAB kreditlash departementi Anderrayting bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya: Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishida bir qator omillar ichida xulq-atvor iqtisodiyoti muhim tarmoqlardan hisoblanadi. Hozirgi jahon tendensiyasiga e’tibor qaratsak, xulq-atvor iqtisodiyoti oxirgi yigirma yillikda eng katta urg‘u berilayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Dunyoning ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarida bank-moliya, marketing va boshqa biznes kompaniyalari bu sohani o‘rganishga, joriy etishga va maksimal foydaga erishishga harakat qilishmoqda. Ayniqsa, marketing va kreditlashda mijozlarni jalb qilishda insonlar xarakteriga ta’sir etuvchi omillarni keng qo‘llashmoqda.

Respublikamizda hozirgi kunda tijorat banklari tomonidan mijozlarni kreditlashda kredit tarixi va ish haqi daromadlarini hisobga olgan holda kreditlar ajratilmoqda. Biroq, xorij tajribasidan ma’lumki bu usulda kreditlashning bir qator kamchiliklari mavjud va cheklangan miqyosdagi mijozlarni jalb qilishni taqozo etadi.

Mazkur maqolada jismoniy shaxslarni keditlash tizimi, kredit skoring tushunchasi, amaldagi respublikamiz banklarining kreditlash tartib qoidalari va to‘lovga layoqatlilikni aniqlash usullari keltirib o‘tilgan. Shuningdek, xulq-atvor iqtisodiyoti omillariga asoslangan holda kreditlash amaliyotining xorij tajribasi, ilmiy tadqiqotchilar qarashlari va ilmiy ishlari qayd etilgan. Shulardan kelib chiqqan holda, respublikamiz banklari va kredit tashkilotlarida xulq-atvor iqtisodiyoti omilini joriy etishning ahamiyati va istiqbollari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kredit, qarz yuki, to‘lov qobiliyati, kredit portfel, muammoli kreditlar, xulq-atvor iqtisodiyoti,, iste’mol krediti, avtokredit, kreditga layoqatlilik, kredit skoring, kredit tarixi.

Abstract: Among a number of factors in the sustainable development of the economy, behavioral economics is one of the important sectors. If we pay attention to the current world trend, behavioral economics is one of the areas that has been given the greatest emphasis in the last two decades. In many developed countries of the world, banking, finance, marketing and other business companies are trying to study this field, implement it and achiyeve maximum profit. Factors affecting the character of people are widely used in attracting customers, especially in marketing and lending.

In our republic, commercial banks currently allocate loans to customers taking into account credit history and salary income. However, it is known from foreign experience that this method of lending has a number of disadvantages and requires attracting customers on a limited scale.

In this article, the crediting system of individuals, the concept of credit scoring, the rules of lending procedure of banks of our republic and methods of determining solvency are mentioned. Also, the foreign experience of crediting based on the factors of behavioral economy, the views of scientific researchers and scientific works are noted. Based on these, the importance and prospects of introducing the factor of behavioral economy in the banks and credit organizations of our republic are highlighted.

Key words: credit, debt burden, solvency, credit portfolio, problematic loans, behavioral economics, consumer credit, car loan, creditworthiness, credit scoring, credit history.

Аннотация: Среди ряда факторов устойчивого развития экономики поведенческая экономика является одним из важных секторов. Если обратить внимание на нынешнюю мировую тенденцию, поведенческая экономика является одной из областей, которой в последние двадцать лет уделяется наибольшее внимание. Во многих развитых странах мира банковские и финансовые, маркетинговые и другие бизнес-компании пытаются освоить, внедрить и добиться максимальной прибыли в этой сфере. Факторы, влияющие на характер людей, широко используются при привлечении клиентов, особенно в маркетинге и кредитовании.

В нашей республике коммерческие банки в настоящее время выдают кредиты клиентам с учетом кредитной истории и заработной платы. Однако из зарубежного опыта известно, что этот способ кредитования имеет ряд недостатков и требует привлечения клиентов в ограниченных масштабах.

В данной статье упоминаются система кредитования физических лиц, понятие кредитного скоринга, правила процедуры кредитования банков нашей республики и методы определения платежеспособности. Также отмечен зарубежный опыт кредитования, основанный на факторах поведенческой экономики, взгляды научных исследователей и научные работы. На их основе выделены важность и перспективность внедрения фактора поведенческой экономики в банках и кредитных организациях нашей республики.

Ключевые слова: кредит, долговая нагрузка, платежеспособность, кредитный портфель, проблемные кредиты, поведенческая экономика, потребительский кредит, автокредит, кредитоспособность, кредитный скоринг, кредитная история.

## KIRISH

Oxirgi yillarda iqtisodchilar asosiy psixologik qarashlarni tushuntirishayotganlarida xulq-atvor iqtisodiyoti deb ataluvchi sohaga katta e'tibor qarata boshlashdi. Unga ko'ra odamlar har doim ham ratsional emasligi keltiriladi. Iqtisodiy nazariyaga ko'ra odamlar ma'lum bir xususiyatlariga qarab joylashtiriladi. Ko'pincha qabul qilingan farazlarga ko'ra ko'pchilik qaror qabul qiluvchi insonlar "Homo ekonomicus" deb ataladi. Bu tur a'zolari har doim ratsional bo'ladilar. Firma menejeri sifatida ular foydani ko'paytirishadi, iste'molchi sifatida ham ular naflilikni oshirishadi. Ular duch keladigan to'siqlarni inobatga olib, ratsional ravishda barcha daromadlarni va xarajatlarni taqqoslaydi hamda har doim eng munosib yo'lni tanlaydilar. Ayrim toifa insonlar esa "Homo sapiens" lardir. Garchi ular ko'p jihatdan ratsional insonga o'xshasa ham, ular ta'sirchan, sarosimaga tushuvchi, emotsional va kaltabin bo'lishadi. Odam fikr yuritishidagi bu kamchiliklar psixologlar o'rganishi uchun muhim soha hisoblangan, lekin yaqingacha ularga yetarlicha e'tibor berishmagan.

Ratsional "homo economicus"ni ifodalaydigan foydalilik funksiyasi ma'lum bir vaqtdan tashqari deyish mumkin, ya'ni u oldindan rejalashtirilgan tanlovlar bilan bog'liq bo'lmasligi ham mumkin. Misol uchun, kimdir ertaga agar yomg'ir yog'sa uyda qolishni va havo ochiq bo'lsa restoranga borishni qaror qildi deylik. Agar ertasiga yomg'ir yog'sa ko'pincha u baribir restoranga boradi va bu vaqt o'tishi bilan uning qarorlarining rejalashtirish bilan amalga oshirishni mos kelmasligini ko'rsatadi.

Xulq-atvor iqtisodiyotini o'rganishning asosiy obyekti iqtisodiy agentlarning ratsionalligi chegaralari hisoblanadi. Xulq-atvor iqtisodiyotida nafaqat bozorda sodir bo'layotgan hodisalar, balki iqtisodiy agentlar tomonidan qaror qabul qilishdagi aqliy xatolar va xudbinlik xususiyatlarini o'z ichiga olgan umumiy tanlov jarayonlari ham o'rganiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ta'kidlash lozim, ushbu sohadagi barcha ilmiy izlanishlar psixologiya bilan bog'langan. Ko'plab yillar davomida insonlarning o'z xulq – atvoriga ko'ra irratsional ya'ni har doim to'g'ri qarorlar qabul qilmasligi haqidagi fikrlari rad etilib kelingan. Lekin, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, insonlar juda aqlli mavjudotlar bo'lmasligi va ularning barcha qabul qilayotgan iqtisodiy qarorlari har doim ham o'ylab qabul qilingan to'g'ri qarorlar bo'lmasligi ham mumkin.

Insonlarning xulq-atvoridan kelib chiqib qarorlar qabul qilish jarayonlarini ko'pgina tadqiqotlarda o'rganishgan. Moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir qiluvchilar orasida iste'molchi resurslari, motivatsiya, jalb qilish, bilim, munosabat, shaxsiy qadriyatlar, turmush tarzi, madaniyat, oila va boshqa vaziyatlar kiradi. Ushbu jarayonlarni o'rganishga bog'liq bo'lgan so'rovnomalarning biri Michigan Universtetida George Katona va uning hamkasblari tomonidan 1950-yildan 1970-yillarning o'rtalariga qadar o'tkazilgan bo'lib, unda insonlarning pul jamg'arishi, uy xo'jaligiga investitsiyalari va qarz olishidagi qarorlarini o'rganishga qaratilgan. Bunday so'rovnomalarda iste'molchilardan ularning moliyaviy mahsulotlar bo'yicha bilimlari va qaror mezonlari haqida so'raldi. Javoblar shuni ko'rsatdiki ularda moliyaviy bilimlar yetishmasligini va tasodifiy qarorlar qabul qilishlarini ma'lum qildilar. Ushbu so'rovnomalarda aksariyat iste'molchilar, masalan, iste'mol krediti va avtokredit uchun foiz stavkalari haqida yaxshi ma'lumotga ega emas edilar. Bu esa moliyaviy bilimning muhimligini ko'rsatadi.

G. Katona "xulq-atvor iqtisodiyoti" deb nomlangan atamani birinchi ishlatgan olim hisoblanadi. Katona va Myullerning "Xarid qarorlarini o'rganish" nomli asarida uy-ro'zg'or buyumlarini sotib olish va moliyalashtirishga olib keladigan jarayonlarni har tomonlama tahlil qilingan. Ular ko'p qarorlar ma'lumotni keng qidirish va muqobillarini baholashga asoslanmaganligini aniqladilar. Iste'molchilar bir nechta sotuvchilar bilan bog'lanib, o'tkazmalarning faqat bir yoki bir nechta sifatlariga e'tibor qaratish orqali ifoda qilishga intildilar. Ba'zi hollarda ular o'tmish tajribasi yoki do'stlar va qarindoshlarning tajribasidan olingan ma'lumotlarga tayanishlari mumkin. Ular xaridlarini moliyalashda biroz kredit olishdi va ko'pincha moliyalashtirish uchun sotuvchilarga tayanishdi. Ularning tadqiqotlar orqali ko'proq yoki kamroq mulohaza yuritishga olib keladigan omillar aniqlandi. Muhokama qilish darajasi vaziyat omillariga bog'liq edi. Qaror qabul qiluvchilar maxsus imkoniyatni (masalan, ayniqsa, qulay sotish narxini), shoshilinch ehtiyojni his qilganlarida yoki ilgari ishlatilgan shunga o'xshash buyumdan qoniqish his qilganlarida muhokama qilish cheklangan bo'ladi. Shuningdek, qimmat yoki o'ta muhim deb hisoblangan, yangi yoki notanish mahsulot bilan bog'liq bo'lgan yoki oldingi xaridlar bilan qoniqarsiz tajribaga ega bo'lgan xaridlar bo'yicha ko'proq mulohaza yuritilgan.

Oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan vaziyatlarda moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonini tushunish oxirgi 20 yil davomida xulq-atvor iqtisodiyoti olimlari tomonidan[1] shaxslarning xulq-atvori va munosabati psixologik ilmiy ishlar bilan o'rganildi[2].

1 Kahneman, D., Tversky, A. Intuitive Prediction: Biases and Corrective Procedures; Cambridge University Press (CUP): Cambridge, UK, 1982; – pp. 414–421.
2 Kahneman, D. Thinking, Fast and Slow; Macmillan: New York, NY, USA, 2011.

A. N. Demin va O. V. Kireyeva kreditlarini o‘z vaqtida to‘layotganlar va to‘lovni uch oy yoki undan ko‘proq kechiktirib to‘lovchilar kabi ikki guruhni solishtirdilar. Hozirda olib borilayotgan yangi tadqiqotlarida, ular iste’mol kreditlari va ipoteka kreditlari bo‘yicha qarz oluvchilarni tahlil qildilar va unga ko‘ra, iste’mol krediti bo‘yicha to‘lov muddatini kechiktirishlilik qarz oluvchining xabardorligi hamda ikki parametr ishga sodiqlik va moliyaviy o‘z-o‘zini nazorat qilish bilan salbiy bog‘liqdir (tejashga tayyorlik – salbiy korrelyatsiya, moliyaviy qarorlar qabul qilish bo‘yicha kognitiv yetishmasligi ijobiy korrelatsiya). Ipoteka kreditlari bo‘yicha to‘lovlarni kechiktirish qarz oluvchining xabardorligi, kutilgan ijtimoiy qo‘llab – quvvatlash, ishga sodiqlik bilan o‘zaro salbiy bog‘langan va uchta moliyaviy o‘zini o‘zi boshqarish parametrlari (xarajatlarni rejalashtirish, moliyaviy mo‘tadillik, tejashga moyillik) hamda moliyaviy qarorlarni kognitiv boshqarishning boshqa parametri bilan ijobiy bog‘langan. Ya’ni moliyaviy xabardor bo‘lmaslik, ijtimoiy yordam kutish, ishga sodiq bo‘lmaslik insonlarning kreditlarni o‘z vaqtida to‘lamaslik xulq-atvorini hamda xarajatlarni rejalashtirish, moliyaviy jihatdan mo‘tadillik, pulni tejashga moyillik to‘lovni o‘z vaqtida to‘lash xarakterini anglatadi.

Agarwal, Driscoll, Gabaix, and Laibson (2008) larning tadqiqotlariga ko‘ra kredit karta foydalanuvchilarining xulq-atvori kechiktirishga, limitdan oshishga moyil bo‘ladi. Mijozlar odatda kartochka ochgandan keyin komission to‘lovlarga nisbatan norozi bo‘la boshlaydilar, to‘lovlarni kechiktirib to‘lashgan holatlarida ortiqcha komission to‘lovlarni zararli ekanligini tushunib yetishadi va xato qilmaslikka harakat qilishadi hamda keyingi oyda kechikib to‘lash ehtimoli 44% ga kamayadi. Ushbu tadqiqotchilarning fikricha iste’molchilar kredit hisob-raqamini ochishayotganda barcha ma’lumotlarni chuqur o‘ylab ko‘rishmaydi va bu holat ularning aqlsizligini bildirmaydi. Insonlar odatda tajribadan xulosa chiqarishadi va o‘zlarining xulq – atvorini xatolardan so‘ng o‘zgartirishadi. Fikrimizcha, kredit karta foydalanuvchilarining xulq atvoriga ko‘ra ular ko‘proq narxga ta’sirchan bo‘lishadi. Qachonki kredit karta beruvchi kompaniya foiz stavkani o‘zgartirsa, mijozlar boshqa xarajatlarni hamda kredit qoldig‘ini kamaytirishadi va umuman olganda umumiy xarajatlarni kamaytiruvchi choralarni ko‘rishadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayoni va xulq-atvor iqtisodiyoti bo‘yicha mavjud bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish, statistik ma’lumotlarni o‘rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma’lumotni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi usullardan keng foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Aqliy buzilishlar, fikrlar va munosabatlar – bu shaxsni shakllantiruvchi ichki omillar hisoblanib, mas’ul qarz oluvchi shaxsning psixologik tadqiqotida ushbu omillarga tayanish mumkin bo‘ladi.

Insonlarning xulqiga ta’sir qiluvchi doimiy xususiyatlari bo‘lishi mumkin. Bu xususiyatlar birinchi navbatda kuzatilmaydigan xususiyatlar yoki qadriyatlar, ehtiyojlar yoki shaxsiyatlar kabi ruhiy holatlardir. Shu nuqtayi nazardan, shaxsiyatlar va psixologik holatlar shaxsning qarzni to‘lash xatti-harakatlariga ta’sir qilishi mumkin deb aytish mumkin[3]. Bundan tashqari ko‘pgina adabiyotlarda insonlar qarz to‘lovini to‘lash xulq-atvorini aniqlashda demografik va iqtisodiy faktorlar yetarli emas, bu xulq-atvorni tushunisda va tushuntirishda psixologik faktorlarni hisobga olish darkor deb keltirilgan[4]. Shuningdek, psixolog Sara Hampson ham shaxslarning o‘ylari, his-tuyg‘ulari, motivatsiyalari, tushunchalari kabi psixologik jarayonlarini o‘rganar ekan, vaqtlar mobaynida bu insonlar xarakterini shakllantiruvchi mexanizm ekanligi aytib o‘tiladi[5].

Ta’kidlash lozim, 2006-yilda ilk bora Garvard universtetining Entrepreneurial Finance Lab (EFL, Massachusets Avyenuye, Cambridge, Massachusets 01238 USA) markazida qarz oluvchilarning psixologik holatlarini aniqlashga qaratilgan amaliyot joriy etildi. EFL tadqiqotlari qarz oluvchilarni psixologik xususiyatlarini, ularning xarakterlari, aqliy qobiliyatlari va sofdilligi kabi kategoriyalarda baholashni takomillashtirishdi. Ularning izlanishlari 6 ta psixologik determinantlardan iborat bo‘lib, bular samarali moliyaviy qarorlar qabul qilish, o‘zini nazorat qila olish, anglash, munosabat bildirish, asab holatlari kabilardir.

---

3 Özşahin, M.; Yürür, S.; Coşkun, E. A Field Research to Identify Psychological Factors Influencing the Debt Repayment Behavior in Turkey. EMAJ Emerg. Mark. J. 2019, 8, 26–33, doi:10.5195/emaj. 2018. – p. 156.

4 Hampson, S. E. Personality processes: Mechanisms by which personality traits “get outside the skin”. Annu. Rev. Psychol. 2012, 63. – p. 315–339. Robb, C. A., Sharpe, D. L. Effect of personal financial knowledge on college students’ credit card behavior. J. Financ. Couns. Plan. 2009, 20. – p. 25–43.

5 Gathergood, J. Self-control, financial literacy and consumer over-indebtedness. J. Econ. Psychol. 2012, 33. – p. 590–602.

1-jadval: Moliyaviy xulq-atvorga ta'sir qiladigan psixologik nomoliyaviy faktorlar[6]

| Tur | Soha | Moliyaviy xulq-atvor oqibati |
|---|---|---|
| Vaziyatga ko'ra faktorlar | Xulq-atvor iqtisodiyoti | Insonlar har-doim ratsional bo'lmaydilar va har-xil vaziyatlarga ko'ra turlicha xatti-harakatlar qilishadi. |
| Shaxsiy faktorlar – aqliy qobiliyatlar | Psixologiya/Xulq-atvor iqtisodiyoti | Odamlar aqliy qobilyatiga ko'ra turlicha bo'ladilar(xotira, aqliy kamchilklarga shunha bn qarash, analitik qobiliyatlar,hisob-kitob bo'yicha qobilyatlar) |
| Shaxsiy faktorlar – psixologik, maxsus bo'lmagan (moliyaga aloqasi bo'lmagan) | Psixologiya | Bir xil vaziyatlarda insonlar ularning tabiiy xarakterlaridan kelib chiqib o'zlarini turlicha tutadilar. |
| Shaxsiy faktorlar – maxsus (moliyaga aloqasi bo'lmagan) | Psixologiya | Odamlar har-xil moliyaviy tushunchalarga nisbatan turlicha o'zlarinig munosabatini namoyon qiladilar (ijobiy yoki salbiy). |

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, turli xil omillarga ko'ra insonlar har-doim ratsional bo'lmaydilar va har-xil vaziyatlarga ko'ra turlicha xatti-harakatlar qilishadi hamda odamlar har-xil moliyaviy tushunchalarga nisbatan turlicha o'zlarinig munosabatini namoyon qiladilar.

Moliyaviy xatti-harakatlardagi shaxsiy farqlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, avvalgi bobda keltirib o'tilganidek, ish haqi va ijtimoiy-demografik omillar moliyaviy xulq-atvorni turlicha bo'lishini to'liq tushuntirmaydi. Inson xulq-atvorini tushunishda maxsus individual xususiyatlar orqali bir xil vaziyatlardagi insonlar xatti-harakatidagi farqlarni anglash mumkin bo'ladi. Shunday qilib, Individual psixologik xarakterlarni iqtisodiy oqibatlar uchun joriy etish jamg'arish, qarz olish yoki investitsiya qilish jarayonidagi qiziqishlarni tushuntirishda muhim hisoblanadi.

2-jadval: Katta beshlik modelidagi shaxsiy xususiyatlar moliyaviy xulqni aniqlashdagi ilmiy tadqiqotchilar uchun[7]

| Xususiyat | Ta'sir turi | Manba |
|---|---|---|
| Ongli bo'lish | Samaraliroq jamg'arish xulq-atvori | Brandstatter (1996) and Warneryd (1996) |
| | Jamg'arma va sug'urtaga ega bo'lish:yaxshi moliyaviy menejment | Ksendzova, Donnelly and Howell (2017) |
| | Qarzdorlikning past ehtimoli | Webley and Nyhus (2001) |
| | Irratsional moliyaviy xulq-atvorni past ehtimoli-(ko'p qarz yuki) | Rustichini et al. (2016) |
| | Credit karta qarzdorligi bilan salbiy aloqa | Brown and Taylor (2014) |
| | Moliyaviy riskni yoqtirmaslik, aksiyalarga investitsiya qilishni xohlamaslik | Oehler and Wedlich (2018) |
| Hissiy beqarorlik (asabiylik) | Yuqori darajadagi qarzdorlik | Nyhus and Webley (2001) |
| | Majburiy sotib olish | Brougham et al. (2011) |
| | Samarali moliyaviy menejment bilan salbiy aloqa | Ksendzova et al. (2017) |
| | Riskli moliyaviy xulq atvor bilan salbiy aloqa | Oehler and Wedlich (2018), Rustichini et al. (2016) |
| | Moliyaviy riskdan qochish bilan ijobiy aloqa | Brown and Taylor (2014), Oehler et al. (2018) |
| Minnatdorlik | Aksiya va riskli moliyaviy xulq-atvor | Bucciol and Zarri (2017) |
| | Moliyaviy riskdan qochish bilan ijobiy aloqa | Brown and Taylor (2014) |
| | Vijdoniy xulq-atvorni oshirish | Rustichini et al. (2016) |
| Ekstraversiya | Riskli moliyaviy xulq-atvor bilan ijobiy aloqa | Oehler et al. (2018), Oehler and Wedlich (2018), Rustichini et al. (2016) |
| | Credit karta qarzdorligi bilan ijobiy aloqa | Brown and Taylor (2014) |
| Tajriba qilishga moyillik | Moliyaviy riskdan qochish bilan ijobiy aloqa | Brown and Taylor (2014) |

6 The Psychology of Financial Consumer Behavior, Dominika Maison Faculty of Psychology University of Warsaw Warsaw, Poland Maison ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

7 The Psychology of Financial Consumer Behavior, Dominika Maison Faculty of Psychology University of Warsaw Warsaw, Poland Maison ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

| | | |
|---|---|---|
| Optimizm(Yuqori kayfiyat) | O'ziga ishonch va riskli moliyaviy xulq atvorga yuqori moyillik | Dhaoui (2015) |
| | Aksiyalarni sotishdan ko'ra sotib olishga moyillik | Kaplanski, Levy, Veld, and Veld-Merkoulova (2015) |
| | Xavfli qarzning yuqoriligi bilan ijobiy aloqa | Angellini and Cavapozzi (2017) |
| | Sotish hajmini ko'paytirishga moyillik | Dhaoui et al. (2013) |
| | Samarali moliyaviy xulq-atvor<br>Moliyaviy muammolarda qo'rqmaslik<br>Moliyaviy vaziyatlarida ko'proq o'ziga ishonish | Stromback, Lind, Skagerlund, Vastfjall and Tinghog (2017) |
| O'zini nazorat qilish | Qarz darajasi va majburiy sotib olish bilan salbiy aloqa | Achtziger et al. (2015) |
| | Doimiy pul jamg'arish<br>Kutilmagan xarajatlarga yaxshi tayyorgarlik<br>Nafaqa uchun yetarlicha pulga ega bo'lishlik<br>Samaraliroq jamg'arish xulq atvori | Stromback et al. (2017) |
| | Yuqoriroq ijtimoiy iqtisodiy daraja<br>Uyi, jamg'armasi va pensiya ta'minotiga ega bo'lishlik | Moffitt et al. (2011) |
| | Kredit va kutilmagan xarajatlardan kam aziyat chekish | Gathergood (2012) |
| | Moliyani nazorat qilish va yaxshi rejalashtirish, ko'proq boylik yig'ish | Biljanovska and Palligkinis (2016) |
| | Nafaqa uchun yetarlicha pul jamg'ara olish | Choi, Laibson and Madrian (2011) |
| | Ko'proq jamg'ara olish | Rha, Montalto and Hanna (2006) |
| | Moliyani yaxshiroq jamg'arish | Miotto and Parente (2015) |

Yuqorida keltirib o'tilgan bir qator olimlarning ilmiy izlanishlari va nazariyalarining jamlanmasidan ko'rish mumkinki, xulq-atvorni moliyaviy qarorlar va ular bilan bog'liq moliyaviy risklarga ta'siri bo'yicha umumiy xulosalar qilish mumkin bo'ladi. Mijozlarning bir qator shaxsiy xususiyatlari, jumladan hissiy beqarorolik, o'zini nazorat qilish, ongli bo'lish, yuqori kayfiyat va minnatdorlik kabi shaxsiy xarakterlarini bilish orqali ularning moliyaviy xulq atvorini hamda shu bilan bir qatorda qarzni o'z vaqtida va muammosiz to'lab berish qobiliyatini ham aniqlash imkonini yaratadi. Bu tadqiqotlarni ayniqsa respublikamizda kreditlash jarayonlarida qo'llash samarali natijalar berishi, kredit portfelini ko'tarilishiga va muammoli kreditlarni oldini olishga olib keladi deb aytish mumkin.

Oxirgi yillarda Respublikamizda kreditlash jarayonlari takomillashib bormoqda. Jumladan, banklar tomonidan mijozlarga chakana kreditlar ajratishda ularni ovoragarchiliksiz va qisqa fursatda kredit ajratish, uning kreditga layoqatliligini o'rgangan holda tahlil qilish va anderrayterlar orqali kredit ajratish skoring moduli ishlab chiqildi. Avvallari fuqaro kredit olishi uchun bankka bir nechta hujjat taqdim etishi va bir necha marotaba bankka tashrif buyurishi kerak edi. Endilikda mamlakatimiz banklari tomonidan Anderrayter tizimi amaliyotga joriy qilindi. Ushbu tizimga ko'ra, mijoz bankka faqatgina pasporti bilan tashrif buyuradi, qolgan hujjatlar, ya'ni ish haqi va kredit tarixi to'g'risidagi ma'lumotlarni bank xodimi tegishli baza orqali (Anderrayter) oladi. Ushbu xodimning o'zi kredit ajratish bo'yicha qaror qabul qilib 1 soat ichida fuqaroga kredit ajratadi. Bu, o'z navbatida, fuqaroni ham vaqtini ham naqdini tejash bilan birga ortiqcha ovorgarchiliklariga chek qo'yadi. Shuningdek, onlayn mikrozaym va overdraft kabi kredit turlari jadal rivojlanmoqda. Ushbu kreditlarni ajratishda ham mijozlarning ish haqi, kredit tarixi,yoshi, jinsi,qo'shimcha daromadi va oilaviy ahvoli o'rganilgan holda kredit berilmoqda.

3-jadval: Milliy valyutada ajratilgan kreditlar qoldig'ida jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar ulushi(foiz hisobida)[8]

| Yillar | Foiz |
|---|---|
| 2016 | 18,0% |
| 2017 | 12,0% |
| 2019 | 19,0% |
| 2020 | 20,0% |
| 2021 | 21,0% |
| 2022 | 26,0% |

8 O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlar tahlilining ko'rsatishicha, 2016–2022-yillar davomida mamlakatimizda tijorat banklarining jami kreditlar qoldig'i o'sishi 7.4 barobar bo'lgan holda, uning tarkibida jismoniy shaxslar kreditlari qoldig'i o'sishi 10.7 barobarni tashkil etgan. 2016-yilda milliy valutada berilgan kreditlar qoldig'ida jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar ulushi 18% ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 26% ga yetgan.

Kreditlar hajmi oshishi bilan bir qatorda muammoli kreditlar hajmi ham oshishini kuzatishimiz mumkin.

4-jadval: Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida yillar bo'yicha o'zgarishi[9]

| Yillar | Kreditlar | Muammoli kreditlar (NPL) | Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi |
|---|---|---|---|
| 2020 | 276 975 | 5 785 | 2,10% |
| 2021 | 326 386 | 16 974 | 5,20% |
| 2022 | 390 049 | 13 992 | 3,60% |

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari tahlilining ko'rsatishicha, mamlakatimiz tijorat banklarining jami kreditlari qoldig'ida muammoli kreditlari ulushi garchi 2021-yilga nisbatan kamaygan bo'lsa ham, 2020-yilga qaraganda o'tgan yilda 1.5% ga ko'p bo'lgan. Bu ko'rsatkichlardan kelib chiqib ta'kidlash joizki mijozlar sonini hamda kredit salmog'ini oshirishda, shu bilan birga muammoli kreditlarni oldini olishda mijozlar xulq-atvorini o'ganish va skoring tizimiga joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Hozirda amaliyotda jismoniy shaxslarni kreditlashda jahon tajribasida 2 xil usulda kreditlanadi, ular avtomatik ya'ni skoring usul asosida sun'iy intelektdan foydalangan holda anderrayting usulida amalga oshiriladi. Bank xodimlari tomonidan qarz oluvchi haqidagi ma'lumotlarni maxsus dasturga kiritilgan holda ballar hisoblanadi. To'plangan ballar asosida kredit berish yoki bermaslik to'g'risida qaror qabul qilinadi. Bunday kresditlash jarayoni 5 daqiqadan 1 soatgacha vaqt talab etishi mumkin. Jismoniy shaxslarga ajratiladigan kreditlarning asosiy amaliyotdan qo'llanilayotgan turlari esa bu overdraft krediti, online kredit, iste'mol kredit, avtokredit va mikrozaymlardir.

## XULOSA

Respublikamizda ko'plab banklarda kreditlash jarayonlarini optimallashtirish, arizalarni ko'rib chiqishda inson omilini kamaytirish, qarz oluvchilar to'lov layoqatliligiga to'g'ri baho berish, banklarda kutiladigan kreditlash amaliyotlari bilan bog'liq risklarni samarali boshqarish, arizalar ko'rib chiqilishini sifatli tashkil etish orqali mijozlarga samarali xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan.

Fikrimizcha, xulq – atvor iqtisodiyoti ilm fanda zamonaviy sohalardan biri sifatida, ayniqsa, kredit tashkilotlaridagi muammolarni boshqacha qilib aytganda risklarni oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Qiyin iqtisodiy vaziyatlarda ayniqsa koronavirus pandemiyasidan keyin kredit qaytmasligi xavf xatari va ko'p miqdordagi muammoli kreditlar ko'pgina davlatlarda kreditlash jarayonidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun insonlarning xulq atvoriga e'tibor qaratish zaruriyatini tug'dirdi. Shuningdek pandemiyadan keyin aholi daromadlari kamayganligini yoki boshqacha qilib aytganda kreditga nisbatan talab yanada ortganligini guvohi bo'ldik va bu o'z navbatida zamonaviy kredit skoring modellaridan foydalangan holda kredit riskini kamaytirib kreditlashni taqozo etadi. Bunda, albatta, xulq-atvor iqtisodiyoti omillariga tayanish maqsadga muvofiq.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:


1. Kahneman, D.; Tversky, A. Intuitive Prediction: Biases and Corrective Procedures; Cambridge University Press (CUP): Cambridge, UK, 1982; pp. 414–421.
2. Kahneman, D. Thinking, Fast and Slow; Macmillan: New York, NY, USA, 2011.
3. Özşahin, M.; Yürür, S.; Coşkun, E. A Field Research to Identify Psychological Factors Influencing the Debt Repayment Behavior in Turkey. EMAJ Emerg. Mark. J. 2019, 8, 26–33, doi:10.5195/emaj. 2018.156.
4. Hampson, S. E. Personality processes: Mechanisms by which personality traits "get outside the skin". Annu. Rev. Psychol. 2012,63, 315–339. Robb, C. A.; Sharpe, D. L. Effect of personal financial knowledge on college students' credit card behavior. J. Financ. Couns. Plan. 2009, 20, 25–43.
5. Gathergood, J. Self-control, financial literacy and consumer over-indebtedness. J. Econ. Psychol. 2012, 33, 590–602.
6. The Psychology of Financial Consumer Behavior, Dominika Maison Faculty of Psychology University of Warsaw Warsaw, Poland Maison
7. The Psychology of Financial Consumer Behavior, Dominika Maison Faculty of Psychology University of Warsaw Warsaw, Poland Maison
8. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan


9 Cb.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 9**

© Materiallar koʻchirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.